



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

CHEK TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Umarova Zebiniso Nizom qizi

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant

zebijurayeva@gmail.com

+998934552206

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179010>

Annotatsiya. Alohida tadqiqot doirasida o'rganilayotgan ushbu mavzuda chet tili o'qitish jarayonida zamonaviy yondashuvlardan foydalanish, talabalarni darsga qiziqtirish va ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yo'llari tadqiqi keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ yondashuv, tizimli-mashq yondashuvi, leksik yondashuv, kommunikativ kompetensiya, rolli o'yin mashqi, muloqot, kognitiv, sotsiomadaniy qobiliyat.

Annotation. In this topic as a part of research work, the use of modern approaches, the study of ways to interest students and to form communicative competence in the process of foreign language teaching are discussed.

Keywords: Communicative approach, system-activity approach, lexic approach, communicative competence, role-play, communication, cognitive, sociocultural competence.

Hozirgi zamonaviy chet tili o'qitishning asosiy birlamchi maqsadlari bu talabalarni chet tili muhitiga yo'naltirish, muloqot qilish jarayonida turli vaziyatlarga tayyorlash, yangi yondashuv, metod va texnikalarni yaratib, darslarda tadbiq etish hisoblanadi. Har bir o'rganilayotgan til talabani dunyoqarash, o'y-fikr va mentalitetiga ta'sir qilgani bois, zamonaviy chet tili o'qituvchisining vazifasi talabaga kommunikativ, kreativ va kognitiv qobiliyatlarni shakllantiruvchi ta'lim metodlaridan darslarda samarali foydalanish hisoblanadi.

Chet tilini o'qitish jarayonida til o'rgatish o'qituvchilarga turli darslik, chet tili kurslari va yangi texnologiyalarni o'z xohishiga ko'ra tanlash imkonini beradi, albatta. Bunda chet tili o'qituvchisi har xil metodologik tizimlardan foydalanishi, zamonaviy pedagogik usullarni qo'llashi va maxsus o'ziga xos qulayliklar yaratishi mumkin. Darsda o'qituvchining moderator, ya'ni nazoratchi sifatidagina roli bo'lmasdan, balki u turli stimullar yaratishi va shu orqali talabaga ta'lim mazmunini o'rgatishi mumkin – u muloqot qilish jarayoni uchun yordamchi va tashkilotchi vazifalarini ham bajaradi¹. O'quv jarayonida o'quv materialini emas, balki talaba

¹ Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. – М.: АРКТИ, 2003. – С.82.



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ustuvor vazifaga ega bo'lib, bunda o'qituvchi didaktik va uslubiy texnologiyalarni amalda qo'llay olishi hamda talabadagi bilim, ko'nikma va malakani to'planishiga ko'maklashishdan ko'ra, undagi ijodkorlik, ishtiyoq, qiziqish kabilarni uyg'otishi lozim.

XX asrning so'nggi choragida tizimli-mashq yondashuvi, ya'ni system-activity approach tushunchasi kirib kelgan. Mazkur yondashuv ijtimoiy-pedagogik tizimlar boshqaruvining metodologik yo'nalishi sifatida qaraladi va bunda yondashuvning pedagogik jarayonga o'zaro bog'liq bo'lgan va bo'lmagan faoliyatlari (o'qitish, ta'lim, boshqaruv, rivojlanish, o'rganish va boshqalar) mavjud². Bundan ko'rinadiki, zamonaviy o'qitish tizimida ta'lim olayotgan har bir talabada yangi bilim va ma'lumotlarni izlash hamda ularni mustaqil egallash qobiliyati bo'lishi lozim. Ta'limda mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tish, ularga osonlik bilan yechim topish malakasi ham zaruriy shartlardan biri sanaladi. Bunda esa tizimli-mashq yondashuvi muammoga asoslangan ta'lim, ya'ni problem-based learning sifatida muammoli vaziyatlarga yechim topishda muhim rol o'ynaydi³. Shunday ekan, talabaning o'quv faoliyatidagi individual olgan bilimi yakuniy natija hisoblanadi.

Mashqqa asoslangan yondashuvda talaba mustaqil ravishda mashqlar bajarish orqali bilimini mustahkamlaydi, ammo bunda o'qituvchi har bir detal yoki rubrikani tushuntirib berishi shart emas. Talaba uchun shunday imkoniyat berilishi kerakki, unda u o'zi mashqlarni oson va to'g'ri bajarish texnikasini izlab topishi lozim.

Ta'lim jarayonida chet tili o'qitish darslarining amaliy va kognitiv qobiliyatlarni oshirishda turli metod va texnikalari mavjud. Masalan, birgina rolli o'yin mustaqil ravishda lingvistik qobiliyatni oshirish, so'z tanlash, intonatsiya va o'zini turli vaziyatlarda qanday tutishni o'rganish kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi⁴. Rolli o'yin mashqi real hayot, muammoli vaziyatlar bilan aloqador bo'lgan, kelajak uchun zaruriy qobiliyatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi⁵. Bundan tashqari, talabalarda qaror qabul qilish qobiliyati ham o'sib boradi.

Yuqorida aytilganidek, chet tili o'qitish jarayonining eng asosiy maqsadlaridan biri bu chet tilida lingvistik, sotsiomadaniy, ta'limiy-kognitiv va boshqa

² Vasyliuk V.M. System-activity approach to formation of research competence of future translators by project-based learning methods. // Педагогічні науки, №1 (23), 2022. – P.23.

³ Kumarbekuly S, Abdimanarov B, Usenov N, Zhensikbayeva N. The essence of the system-activity approach and critical thinking in the educational process. // Pedagogy and psychology, №4 (49), 2021. – P.211.

⁴ Makasheva F.N, Faizullieva A.A, Urazova A.N, Suyunova A.T, Ishangaliyeva K.S. Modern approaches in teaching English language. // Bulletin of WKITU, №4 (32), 2024. – P.155.

⁵ Clapper T.C. Role play and simulation: Returning to teaching for understanding. // The Education Digest, №75 (8), 2010. –P.40.



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kompetensiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hisoblanadi. Kommunikativ tizimli-mashq yondashuvi esa aynan shu vazifa uchun xizmat qiladi. Kommunikativ yoki muloqot yondashuvida talabanning chet tilida amalga oshiriladigan suhbat jarayonida ishtirok eta olishi, dars va darsdan tashqari bo'lgan vaziyatlarda o'z suhbatdoshi bo'lgan do'sti yoki chet el vakillari bilan bemalol muloqotga kirishishi juda muhim sanaladi. Bu yondashuv nafaqat tilning lingvistik jihatlarini, balki jamiyatning kommunikativ funktsiya va ijtimoiy xususiyatlarini o'rganishda ham muhim sanaladi⁶. Bunda talabalar boshqa madaniyat va jamiyatdan bo'lgan suhbatdoshining nutqidan ko'zlangan maqsadni tushunib yetishlari uchun ham tilga, ham ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga tegishli ma'lumotlarni egallashi maqsadga muvofiq sanaladi.

Keyingi chet tili o'qitish jarayonida muhim sanalgan yondashuvlardan biri bu XX asrning 90-yillari boshida rivojlangan leksik yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuvning boshqa an'anaviy yondashuvlardan farqi bunda grammatika asosiy rol o'ynamaydi, aksincha, tildagi fraza va iboralarga leksik birlik sifatida qaraladi. Talaba til o'rganish jarayonida leksik birliklarning ma'nosini matn yoki suhbat davomida o'rganadi. Leksik birliklarga esa mutaxassislar tomonidan quyidagilar misol tariqasida keltirilgan:

- Sodda so'zlar;
- Qo'shma so'zlar;
- Iboralar;
- O'xshatishlar;
- Maqollar;
- Qotib qolgan qolipli so'z birikmalari⁷.

Ushbu leksik birliklarni gapda to'g'ri qo'llay olish yoki ma'nosini anglash har qanday chet tilini o'rganuvchi kishi uchun muhim sanaladi.

Qisqa qilib aytganda, shunday birikma yoki frazalar borki, ularning ma'nosiga tushunish talaba uchun biroz qiyinchilik tug'diradi. Shu paytda unga so'zni kontekstda o'rganish va ma'nosini yodda saqlash osonroq bo'ladi. Bunda talaba lug'at boyligini oshirishga erishadi. Bu yondashuvning oxirgi bosqichi leksik bilimlarni yodda uzoq saqlashga va ularni og'zaki nutqda faol ishlatishga harakat qilishdan iborat.

⁶ Jabeen Sh.Sh. Implementation of communicative approach. // English language teaching, №8 (7), 2014. –P.68.

⁷ Racine J.P. Lexical approach: Framing the issue. // The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching, First Edition (2), 2018. –P.2.



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Xulosa qilib aytganda, chet tili o'qitish jarayonining maqsadi zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan bir qatorda talabalarning ijtimoiy-madaniy, kognitiv, kreativ va asosiysi, kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Bunda esa chet tili o'qituvchisidan hozirgi zamon talabasining ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda yangi chet tili ta'limi yondashuv, metod va texnologiyalaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Bunda muloqot, leksik va tizimli-mashq kabi bir qator yondashuvlar mavjud bo'lib, ularda chet tili o'qituvchisi talabalarning suhbat jarayonida til va unga aloqador boshqa xususiyatlarini mashqlar yordamida o'rgatadi. Bu orqali ularning nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy, pragmatik va dunyoviy bilimlari oshishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Clapper T.C. Role play and simulation: Returning to teaching for understanding. // The Education Digest, №75 (8), 2010. –P.39-43.
2. Jabeen Sh.Sh. Implementation of communicative approach. // English language teaching, №8 (7), 2014. –P.68-74.
3. Kumarbekuly S, Abdimanapov B, Usenov N, Zhensikbayeva N. The essence of the system-activity approach and critical thinking in the educational process. // Pedagogy and psychology, №4 (49), 2021. – P.211-218.
4. Makasheva F.N, Faizullieva A.A, Urazova A.N, Suyunova A.T, Ishangaliyeva K.S. Modern approaches in teaching English language. // Bulletin of WKITU, №4 (32), 2024. – P.153-165.
5. Racine J.P. Lexical approach: Framing the issue. // The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching, First Edition (2), 2018. –P.1-7.
6. Vasyliuk V.M. System-activity approach to formation of research competence of future translators by project-based learning methods. // Педагогічні науки, №1 (23), 2022. – P.23-25.
7. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. – М.:АРКТИ, 2003. –192 с.